
Taktik o'quv mashqi o'tkazildi

2 avgust kuni soat 14:00da Rishton tumanidagi "Ruso'zbekteks" XK MChJ da favqulodda vaziyat yuz bergan (zilzila va yong'in) chog'ida bajariladigan shoshilinch ishlar taktik o'quv mashqi misolida namoyish qilindi. Korxonada yong'in xavfsizligi shtabi boshlig'i Sherzod Sultonov aloqa va yordam guruhlarini ishini muvofiqlashtirib bordi. Kuchli yer qimirlashi oqibatida binoda yuz bergan chang va tutun holati ko'rsatildi.

Avvalo zilziladan jabr ko'rgan ishchilar tashqariga olib chiqilib, birinchi tibbiy yordam ko'rsatilgach ular shifoxonaga jo'natildi. Yong'in ro'y bergani haqida xabar berilgach o't o'chiruvchilar jamoasi tezlikda ishga kirishdi. Paxta toylari joylashgan maydon yaqinida yuz bergan yong'inni o'chirishga muvaffaq bo'lindi.

Taktik o'quv mashqi jarayonini kuzatib borgan Farg'ona viloyat FVB boshlig'i podpolkovnik Umidjon Ismoilov, Rishton tumani FVB boshlig'i mayor Isroiljon Kenjaboev yo'l qo'yilgan kamchilik va xatolarni ko'rsatib berishdi. Xususan o't o'chiruvchilarning zarur asbob-anjomlari yetishmasligi tanqid qilindi. Mashq jarayoniga oid savol-javoblar bo'ldi. Taktik o'quv mashqi bir soat davom etdi.

2022-08-02 18:59:51